

“OMONGUL” QISSASI STRUKTURAL TAHLILI

Islomova Begoyim Uktam qizi

Termiz Davlat Universiteti magistranti

Obidjon Shofiyev

Ilmiy rahbar: dots.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Salomat Vafoning “Omongul” qissasi struktural metod yordamida tahlil qilingan. Asar syujeti va qahramonlarning ichki psixologik konflikti koordinatalar o‘qida tasvirlab berilgan.

Kalit so‘zlar: obraz, ayollar obrazi, qissa, metod, struktural metod, son o‘qi, konflikt

СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ РАССКАЗА «ОМОНГУЛ»

АННОТАЦИЯ

В данной статье с помощью структурного метода анализируется рассказ Саломат Вафы «Омонгул». Сюжет произведения и внутренний психологический конфликт героев описываются по оси координат.

Ключевые слова: образ, образ женщины, рассказ, метод, структурный метод, ось координат, конфликт.

STRUCTURAL ANALYSIS OF THE STORY “OMONGUL”

ABSTRACT

In this article, the short story “Omongul” by Salomat Vafo is analyzed in a structural way. The plot of the work and the internal psychological conflicts of the characters are described along the coordinate axis.

Key words: image, female image, story, method, structural method, coordinate axis, conflict.


Salomat Vafo asarlari markazida ko‘p hollarda ayol obrazi gavdalanadi. Asosan, bosh qahramon qilib olingan ayollarni **mazluma ayollar** (“Sulaymonning uzugi” hikoyasidagi Bibijon), **ojiza ayollar** (“Baland uchgan samolyot” hikoyasida Nasiba) hamda **o‘zini izlashga urinayotgan ayollar** (“Omongul” qissasida Omongul) kabi

guruhlarga bo‘lib o‘rganish mumkin. Shartli ravishda Salomat Vafo asarlaridagi barcha ayollar obrazini bundan kengroq tasniflash ham mumkin.

Qissa boshida Salomat Vafo Sobiq Ittifoq davridagi bir guruh ayollarning umumlashma obrazini tasvirlayotgandek tuyiladi: bu kabi ayollar ongiga ijtimoiy tuzum manfaati yo‘lida xizmat qilish va buni eng sharaflı vazifa deb bilish singdirilgan. Ammo qissa bosh qahramoni o‘z hayatini sarobga berilgan tuzumning domidan qutqarolgan, qalbidagi samimiylilikni saqlab qololgan qahramondir.

Qissada epik nutqning kompozitsion shakllaridan rivoya va tavsifdan kengroq foydalilaniladi. Ya’ni unda roviy ikkita. Muallifdan voqelik, bosh qahramon tilidan esa uning ichki kechinmalari, taqdirdoshi -- ammasiga taskinlari hikoya qilinadi: “Jonim ammam! Ko‘rar ko‘zim ammam. Seni yo‘qlayverib ovozim bo‘g‘ildi, yo‘lingga ko‘z tikib, ko‘zlarim toldi. Qayt endi, amma, qaytaqol. Barchasiga etak silki-da, qayt...”.

Syujet asar markazida turuvchi personajlar atrofida harakatlanadi. Qissa markazida Omongul va ismi keltirilmagan amma taqdiri qalamga olinadi. Bunda ijodkor bir personaj tilidan boshqa personajga oid voqeа syujetini bayon qilish orqali ikki qahramonni ham kitobxonga sezdirmagan holda yetakchi qahramonga aylantiradi. Voqeaning bunday parallel kelishi qissaga struktural metod bilan yondashgan holda tahlil qilish imkonini beradi. Struktural metoddha matnning biror qismini geometrik chizgilar yordamida ifodalash tajribasi bor (B. Karim “Koordinatalar tekisligidagi uch hikoya yoxud epik tasvir muvozanati”). Biz ham ana shu tajribadan foydalangan holda “Omongul” qissasini koordinatalar tekisligida quyidagicha joylashtirdik:



Qissa syujetini son o‘qida tasvirlash butun boshli asarning bir zumda kitobxon ko‘zi oldida namoyon bo‘lishiga yo‘l ochadi.

Qahramon ruhiyatida konflektlar mavjud va shu o‘ylar uni o‘zligi tomon harakatlantiradi. Qissa boshida Omongul ruhan ezilgan, ko‘proq ammasining taqdiriga achinadigan, deputat bo‘lsa-da so‘zini aytishga jur’ati yo‘q obraz sifatida gavdalanadi.

Shu o‘rinda Omongul o‘zi sezmasa-da, ruhiy holati achingani – ammasi bilan bir xil edi. Bu ikki qahramonga baxt begona edi, o‘z qalbiga quloq solish va o‘zligi begona edi. Koordinatalar tekisligida vertikal chiziqlar boshlanish nuqtasi bir xilligi aynan, ana shu qahramonlar ruhiyatidagi bir xillik. Chiziqlarning manfiydan musbatga qarab o‘sib borishidagi farq esa ularning o‘zini topish yo‘lidagi harakat trayektoriyasidir. Ammaning to‘rt erga tegib tole ko‘rmagani, uzlatga chekinib o‘zini jamiyatdan ayirishi shusiz ham baxtsiz bo‘lgan hayotini yana ham zulmatga ko‘madi. Natijada u harakatdan to‘xtaydi. Omongul uchun ruhiy madad bo‘lib xizmat qilgan yana bir obraz Ro‘zmatov muallim obrazidir. U shunday odam: “Hamma narsaga aralashib ketaveradi. Bu odam yoshulli ekan, erta-indin ishim tushadi, deb o‘ylab o‘tirmaydi... Bitta-yarimta o‘quvchisi darsga kelmay qolsa, poyi-piyoda yurib uyiga boradi. Bir o‘quvchisining sigiri ko‘lda tug‘ib qolgan ekan. Ro‘zmatov qishloqqa buzoqchani o‘zi ko‘tarib kelibdi...”

Muallim Omongulga deputatligidan foydalanib yaxshi ishlar qilishiga undaydi. Shu uchun ham Omongul majlislarda tashabbuskor takliflar bilan chiqadi, nogiron farzandi bor tul xotinning maoshidan pul undiryotgan birgadirga tik borib undan shapaloq ham yeydi. Omongul shu lahzadan boshlab o‘zgaradi: **“Manglayim sho‘rini sidirib tashlashga qaror qildim, amma! Ketmasa terisi bilan ko‘chiraman. Endi boshqacha yashashim kerak. Axir odam dunyoga bir marta keladi, ammajon! Qayta qol, endi!..”**

Qissaning kulminatsiyasi aynan shu voqeaga ulangan, ya’ni Omongul tul xotinning maoshi uchun komissiya oldida turganda ayol raisdan qo‘rqqanidan har oy maoshini to‘liq olyotganini aytadi, Omongul izza qilinadi. Ustiga-ustak farzandi nobud bo‘lgan Omongulning nomini yana qora qilib qaynonasi Ro‘zmatov bilan gap qiladi. Bir yilda bir mehmondek keladigan er Omongulni boshiga tosh bilan urib poyezd yo‘liga tashlab ketadi. Uni qutqarish uchun faqatgina vafodor iti Olabo‘yin keladi. Omongulni o‘limdan saqlab qoladi. Bu Omongul uchun yangi bir hayotning boshlanishi edi, chunki uni baxtli qilish uchun “chiroqlari yonib o‘chayotgan svetaforni ko‘zlab bir yigit yelib kelardi, ko‘ksini achchiq izg‘Iringa tutgancha yelib kelardi...”

Salomat Vafo tasvirlayotganlarining detaligacha aniq, tiniq tasvirlaydi, so‘zga so‘z qo‘shishdan qochmaydi. U mufassallik orqali anqlikka intiladi: “Qoramfir gulli satindan ko‘krak burma ko‘ylak kiygan o‘rta yashar xotin”. Bir xotinning ko‘rinishini tasvirlash uchun xizmat qilgan bu to‘qqizta so‘z o‘rniga “o‘rta yashar xotin” yoki “qora ko‘ylak kiygan xotin” deb so‘zini qisqa qilmaydi, balki kengroq tasvirlaydi. Shunga o‘xshash holat uning “Baland uchgan samolyot” hikoyasida ham keladi: “Tandirdan jazillab, qizarib, ishtahani qitiqlovchi ajabtovur hid taratib chiqayotgan so‘qildoq non...”. Odatda ijodkorlar asarida ortiqcha so‘z ishlatischdan tiyiladi, kam so‘z orqali asar g‘oyaviy mazmunini yuzaga chiqarishga harakat qiladi. Aksar hollarda mana shu

“ortiqchalik” ham asarda kitobxon tasavvurini boyitishga harakat qilishi mumkin. Salomat Vafo qissasida aynan shu jihatdan unumli foydalana olgan.

Qissada ong va ongosti bilan bog‘liq tahlilga tortish mumkin bo‘lgan holatlar ham bor. Omongul ammasiga murojaat qilar ekan, uning taqdiriga achinib, bir qadar ammasiday bo‘lmaslikka harakat qiladi, ammasini inkor etgan holda uning taqdiridagi holatni o‘ziga ham “tortib” oladi. Natijada o‘zining oilaviy munosabatlariga dars ketadi. Freyd nazariyasiga ko‘ra, har qanday o‘ylangan yaxshi yoki yaxshi bo‘lmagan fikrlar inson ongostida qoladi va shu kabi holatni o‘ziga tortib olishi mumkin.

Omongul o‘z nomi bilan sinovlardan nafaqat jismonan, balki ruhan omon chiqa olgan qahramon. Qaynona va qaynopasining, uni qadrlamaydigan erining turtkilashlariga, kmsitishlariga chidagan ayol – Omongul, daryoda ko‘ylak bilan cho‘milgan hayoli ayol – Omongul, farzand quvonchini tuyolmay telba bo‘lgan ayol – Omongul, tuhmatlarga qolsa-da haq so‘zni hayiqmay aytgan ayol – Omongul, o‘zini izlashga, topishga harakat qilyotgan ayol – Omongul.

Badiiy asarni turli metodlar yordamida tahlil qilish unga turli rakursdan yondashishga xizmat qiladi. Geometrik shakl va unsurlardan foydalanib badiiy adabiyot namunasini tahlil qilish, balki asar haqida to‘liqlikcha ochib berolmas, lekin yangi bir qarash, yangicha analiz, yangicha yondashuv paydo bo‘lishiga asos bo‘ladi. Salomat Vafoning “Omongul” qissasi struktural metod yordamida tahlil qilinganda ham badiiy ijod mahsuli sifatida, ham yozuvchining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beruvchi asar sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Quronov D. “Adabiyotshunoslik nazariyasi” T.:”Akademnashr” 2018
2. <https://kitobxon.com/oz/online-reader/2620>
3. Salomat V. “O‘zini izlayotgan ayol”(qissa va hikoyalar) T.: Kamalak 1991
4. Bahodir K. “Ruhiyat Alifbosi” T.: G‘afur G‘ulom 2018
5. Shofiyev O.”Erkin A’zam nasri badiiyati” (monografiya) T.: Qaqnus Meadia 2019